



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI MÁMLEKETLIK AKTIVLER BASQARMASININ'
B U Y R Í G'I**

2023-jil. 07-sentyabr

№152

Nókis qalasi.

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining
2023-yil 30-avgust kungi 241-sonli buyrug‘ining ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 30-avgust kungi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-avgustdagi 424-son qarori ijrosini tashkil etish to‘g‘risida”gi 241-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1.O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 30-avgust kungi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-avgustdagi 424-son qarori ijrosini tashkil etish to‘g‘risida”gi 241-sonli buyrug‘i rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2.Qaror bilan:

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti (keyingi o'rinlarda - reglament);

Ko'chmas mulkni bo'lish va uning yangi chegaralarini belgilash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamenti;

Ko'chmas mulkni birlashtirish va uning yangi chegaralarini belgilash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamenti tasdiqlanganligi;

"Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni va uning ijrosini tashkil qilish bo'yicha Davaktiv agentligining 2022-yil 5-dekabrda 333-son buyrug'i qabul qilinganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3.Davlat aktivlarini xususiylashtirishga tayyorlash va xususiylashtirish sho''basi (Qarlibaev), ikki oy muddatda reglament talablaridan kelib chiqib xususiylashtirish natijalari bo'yicha Davaktiv agentligining axborot tizimi va "E-auksion" elektron savdo platformasida ko'chmas mulk obyektlarini auksion orqali sotishda yuzaga keladigan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini yo'lga qo'yilishini ta'minlasin.

4.Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (Embergenov) doimiy ravishda bir yildan kam bo'lmagan muddatga tuzilgan davlat ko'chmas mulk obyektlarini ijaraga berish shartnomalari davlat ro'yxatidan o'tkazilishini nazoratga olsin.

5.Mazkur buyruqning ijrosi ustidan nazorat oʻrnatishni oʻz zimmamda qoldiraman.

Boshqarma boshligʻi



M.Radjapov